



## INKLYUZIV TA'LIMDA TIFLOPEDAGOGIKANING O'RNI VA AHAMIYATI

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti  
Maktabgacha ta'lim pedagogika  
psixologiya yo'nalishi talabasi Azizova  
Shoxsanam*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15254943>

**Annotatsiya:** Biz ushbu maqolada zaif ko'ruvchi va ko'ruvchi va ko'zi ojiz bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish usullari va qoidalarini o'rganamiz.

**Kalit so'zlar:** zaif ko'ruvchi, ko'zi ojiz, inklyuziv ta'lim, defektologiya, tiflopedagogika, maktab, ta'lim, o'quvchilar.

“Tiflos” so'zi grekcha tildan olingan bo'lib “ko'r” yoki “ko'zi ojiz” degan ma'noni anglatadi. Ko'zi ojizlar uchun dastlabki maktablar dastlab Fransiyada so'ngra Germaniya, Avstriya, Angliya, Amerika kabi davlatlarda faoliyat boshlagan. Rossiyada ko'zi ojizlar uchun moslashtirilgan maktab Peterburg shahrida 1807 yili tashkil qilingan bo'sa, O'zbekistonda esa 1922 yili Toshkent shahrida tashkil etildi.

Bundan ham ko'rinib turibdiki bu soha bizda oldindan bor edi. Sohani shakllantirish va unga qonuniy tus berish esa 2020 yil amalga oshirildi. Hozirda ham bu sohada samarali ishlar olib borilmoqda. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar hayotini yaxshilash va uzluksiz ta'lim olishlarini ta'minlash uchun juda ko'p olimlar izlanishlar olib boorish yapti. Bu sohani rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. Yurtimizdagi shunday olimlardan biri O'zbekiston Respublikasida, O'rta Osiyoda yagona Nizomiy nomidagi TDPU Defektologiya fakultetida faoliyat yuritayotgan professor tarbiyachilar, shuningdek G. Bendi, K. Mamedov, R. Oxunov, o'qituvchi N. A. Grigoryanslar tiflopedagogika sohasida salmoqli izlanishlar olib bormoqdalar. Chet davlatlarda ham bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar juda ko'p. Ulardan biri Rossiyalik olim L.S.Pontregin. U matematikaning yangi sohasi topologic algebraga asos soldi. Rus olimlari orasida tiflopedagogika sohasida ish olib borgan olimlar A. V. Birilevva B. I.Kovalenko. Birgina B. I. Kovalenkoning o'zi ko'zi ojiz bolalar uchun uzluksiz ta'limni tashkil qilish rejalarini ishlab chiqdi. Bir qancha darslarga metodik qo'llanmalar tayyorladi. Uning metodik qo'llanmalari minglab ko'zi ojiz bolalarning tarbiyachilari uchun qo'llanma sifatida foydalanilmoqda. Mamlakatimizda ham bu sohada ishlar juda ko'p olib borilmoqda. Inklyuziv ta'limga ham jalb qilish yo'lga qo'yildi.

Ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni har tomonlama o'rganish, ko'rish qobiliyati va ikkilamchi buzilishlar bilan kuchayadigan individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, shuningdek bolaning rivojlanishi, o'qishi va ijtimoiylashuvidagi boshqa muammolarni ham o'z ishiga oladi. Tiflopedagog ishining diagnostik yo'nalishini sentabr oyining dastlabki ikki haftasida ( 1 sentabrdan 15- sentabrgacha) va o'quv yilining so'nggi ikki haftasida(15-maydan 31 maygacha) amalga oshiriladi. Uning natijalari maktab yig'ilishida muhokama qilinadi. Tuzatish pedagogik ish jarayonidagi ishlarni individual yo'naltirilgan dasturini tuzatishga va bola rivojlanishining doimiy muammolariga e'tiborni qaratishga imkon beradigan oraliq imtihon taqdim etiladi. Yakuniy tashxis- bu ikkilamchi rivojlanish buzilishlarining barcha ko'rinishlarini o'rganishni qamrab oladigan shuningdek universal ta'lim harakatlarining barcha turlari shakllantirishni ochib beradigan chuqur kompleks tekshiruvni talab qiladi.

Shundan ham bilsek bo'ladiki biz ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga har tomonlama e'tibor berishimiz kerak. Bu orqali biz ularni jamiyat hayotiga tayyorlaymiz. Muloqot ko'nikmalarini shakllantiramiz. Bolalar tengqurlari bilan muloqot jarayonida ham o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Kelajakda katta hayotga tayyorlov jarayoni ham aynan maktab katta ro'l o'ynaydi. Inklyuziv ta'limga tiflopedagogika juda kerak. Ko'zida nuqsoni bor bolalar jamiyatga qiyin moslashadi, muloqot shakli ham oson kechmaydi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun ham inklyuziv ta'lim kerak. Chunki bu ta'lim tizimi bolalarni maxsus maktablardan olib oddiy



maktablarga beradi. Oddiy maktabda bu turdagi bolalar eng avvalo uyidan qatnedi. Ota-onasi bag'rida bo'ladi ularning mehridan doim bahramand bo'ladi. Ko'cha hayotini ko'radi atrof muhit bilan tanishadi. Oddiy maktab ular uchun har tomonlama yaxshi natijalar beradi. Shuning uchun ham inklyuziv ta'lim har joyda hamma maktabda joriy qilinishi kerak. Uning samarasi ham yaxshi bo'ladi. Tiflopedagogika sohasi ham rivojlanib bormoqda bu sohada ham ko'p ishlar qilinmoqda. Har bir qilingan ish o'z samarasini beradi. Shuning uchun ham bu turdagi ta'limni qo'llab quvvatlashimiz zarur.

Bugungi kunda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maktabgacha ta'lim tizimi shakllantirilmadi. Kelgusida shu yo'nalish ochilishini va unda bolalar ta'lim olishini kutib qolamiz.

Tiflopedagogikaning eng muhim vazifasi bolalarda saklanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish va uni rivojlantirish, ko'rish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit vujudga keltirish, ta'limning texnika vositalarini qo'llashdan iborat.

Tiflopedagogikaning umumiy va maxsus pedagogika., psixologiya, fiziologik optika, oftalmologiya, pediatriya, maktab gigiyenasi, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, tilshunoslik, tiflotexnika fani ma'lumotlariga suyanadi. O'zbekistonda 2002/03 o'quv yili ko'rlar uchun 8 (1,4 ming o'quvchi), zaif ko'radigan bolalar uchun 3 (0,6 ming o'quvchi) maktab ishladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 86 ta ixtisoslashtirilgan va 22 ta, shu jumladan, tayanch-harakat apparati va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun 4 ta, ko'r va ko'rish qobiliyati zaiflar uchun 14 ta, karlar va eshitish qobiliyati zaiflar uchun 18 ta, aqli zaiflar uchun 50 ta sanatoriy-kurort ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur muassasalarda 28 ming nafardan ortiq nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim va tarbiya oladi. 8,6 mingdan ortiq bola uy ta'limga o'tkazildi. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bunday o'quvchilarga 11 mingdan ortiq turli o'quv qurollari berilgan. Bu o'quv qurollari bolalarni sifatli ta'lim olishlariga yordam beradi. Har bir yosh avlod sifatli ta'lim olishga haqli.

Inklyuziv ta'limda zaif ko'ruvchi bolalar uchun ham ko'p sharoitlar yaratilgan. Bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish bolalar va ularning ota-onasi uchun ham yaxshi bo'ladi. Bolalar maxsus maktablarda o'qigandan ko'ra inklyuziv ta'limda oddiy maktabda o'qigani o'zlari uchun yaxshi. Chunki har kuni ota-onasi bag'rida bo'ladi. Erta yoshdan kasb-hunar o'rganadi. Kelajakda o'zlariga zamin hozirlashadi. Jamiyat hayotiga ham tez moslashadilar. Tiflopedagogika yo'nalishida maktabgacha ta'limni tashkil qilish uchun avvalo zaif ko'ruvchi bolalarhaqida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib tashkil qilish zarur. Ularga zarur shart-sharoitlarni yaratib berish lozim. Kerakli o'qituvchi va mutaxassislarni ham jalb qilish kerak bo'ladi. Mutaxassislar bolalardagi har bir o'zgarishni kuzatadilar o'rganadilar va ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqadilar. Bolalarga o'ta muloyimlik bilan muomalada bo'ladilar. Psixolog bolalarning ruhiyati, undagi o'zgarishlarni kuzatib boradilar. Bunda eng asosiysi ota-onalar bilan hamkorlik. Chunki uyda muhit ham bolaga ta'sir qiladi.

Tiflopedagogika fanining asosiy vazifalari demak quyidagilarni tashkil etadi:

- Ko'rishda jiddiy nuqsoni bo'lgan shahslarni psixologik – pedagogik va kinetik jihatdan o'rganish; Bu kabi nuqsonlar mavjud bo'lganda ruhiy va jismoniy rivojlanish anomalialari va ko'rish funksiyasi tuzilishlarini aniqlash;
- Ko'rish va ko'zi ojizlarda buzilgan va to'la rivojlangan funksiyalarni kompensasiyalash, korreksiyalash va tiklanishning yo'llari va shartlari;
- Shaxsning ko'rish funksiyalari turli tuzilishlari mavjud holda shakllanishi va har tomonlama rivojlanish shartlarini o'rganish. Fan asoslariga o'rganish politexnik va mehnat va kasb tayyorgarligi masalalarini hal etish; • Ko'r va ko'zi ojizlarni o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalari tiplari va strukturasi belgilash;
- O'quv rejalari, dasturlari mashg'ulotliklar, xususiy metodikalarini tuzumining ilmiy asoslarini ishlab chiqarishdir;



• Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarning bilim imkoniyatlarini kengaytirish, ularni o‘qitish va jamiyatda, mehnatga tayyorlash samaradorligini oshirish imkonini beradigan maxsus texnik vositalar yaratishdir; • To‘laqonli bo‘lmagan ko‘rishni muhofaza qilish va rivojlantirish bo‘yicha gigiyenik tadbirlar tizimini ishlab chiqarish; • Ta‘lim – tarbiya va kasb tayyorgarligi uchun binolarni loyihalash maxsus maktablarni rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish; • KNB bolalarni reabilitasiya va integrasiyalashni yo‘lga qo‘yish tashkil etadi;

Tiflopedagogika zimmasiga qo‘yilgan vazifalarni yechishda umumiy, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, aftalmologiya, maktab gigiyenasi, bolalar nevrologiyasi bilan hamkorlikda bajariladi. Chunki pedagoglar bilan hamkorlik doim yaxshi samara beradi. Bu bolalar uchun ham foydali. Fikr almashish insonni fikr almashishga chorlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичёва Т.Б. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. – М., 1990.
2. Жукова Н.С. Преодоление недоразвития речи у детей. – М., 1994.
3. Иваненко С.Ф. Формирование восприятия речи у детей с тяжёлыми нарушениями произношения. – М., 1984.
4. Картушина М.Ю. Логоритмические занятия в детском саду. – М., 2004.